



## PAREMIOLOGIK BIRLIKLARIDA “HASAD” KONSEPTINING IFODALANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20127970>

**Sa’dullayeva Ozoda Zoid qizi**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Koreys filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada paremiologik birliklarda “hasad” konseptining ifodalanishi lingvokognitiv va lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda paremiyalarning xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy qadriyatlari va emotsional olamini aks ettiruvchi muhim til birliklari ekanligi yoritiladi. Xususan, koreys tilidagi 배가 아프다, 남의 떡이 커 보이다, 사촌이 땅을 사면 배가 아프다 kabi frazeologik va paremiologik birliklar misolida hasad, rashk, ichki noqulaylik va o‘zganing yutug‘ini ko‘ra olmaslik kabi ma’nolar ochib beriladi. Maqolada mazkur birliklarning semantik tuzilishi, ko‘chma ma’nosi, pragmatik vazifasi hamda milliy dunyoqarash bilan bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari paremiologik birliklar orqali emotsional konseptlarni o‘rganishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*

**Kalit so‘zlar:** *hasad konsepti, paremiologik birlik, maqol, frazeologizm, lingvomadaniyat, lingvokognitiv tahlil, semantik tahlil, koreys tili, emotsional konsept, milliy dunyoqarash.*

**Annotation:** *This article analyzes the expression of the concept of envy in paremiological units from linguocognitive and linguocultural perspectives. The study highlights that paremias are important linguistic units reflecting the historical experience, social values, and emotional world of a nation. In particular, Korean phraseological and paremiological units such as 배가 아프다, 남의 떡이 커 보이다, and 사촌이 땅을 사면 배가 아프다 are examined to reveal meanings related to envy, jealousy, inner discomfort, and the inability to tolerate another person’s success. The article explains the semantic structure, figurative meaning, pragmatic function, and cultural background of these units. The results of the study are significant both theoretically and practically for the investigation of emotional concepts through paremiological expressions.*

**Keywords:** *concept of envy, paremiological unit, proverb, phraseologism, linguoculture, linguocognitive analysis, semantic analysis, Korean language, emotional concept, national worldview.*

Dunyoning lisoniy manzarasi inson  
tafakkurida shakllanishida til

vositalarining, ayniqsa, paremiyalarning  
o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.



Xususan, xalq maqollari muayyan etnosning tarixiy tajribasi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari hamda borliqni idrok etish usullarini o'zida mujassamlashtirgan paremiologik birliklar sifatida inson ongida olam haqidagi konseptual tasavvurlarni shakllantirish va tartibga solishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois paremiyalarning dunyo manzarasini aks ettirish va shakllantirishdagi o'rnini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Mazkur muammo bugungi kunda tobora kuchayib borayotgan ilmiy qiziqishga sabab bo'layotgan bo'lsa-da, paremiologiyaning nazariy asoslari, tasnif tamoyillari hamda amaliy tavsifi hali to'liq va izchil ravishda yoritilgan deb bo'lmaydi.

Paremiyalarning funksional tabiati, avvalo, ularning muayyan lingvomadaniy makonda bajaradigan pragmatik, kognitiv va aksiologik vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir paremiya o'z semantik tuzilishida muayyan proto-vaziyatning umumlashtirilgan, ixchamlashtirilgan hamda ijtimoiy tajriba asosida saralangan modelini mujassamlashtiradi. Shu jihatdan, paremiyalar konkret kommunikativ sharoitda yuzaga kelgan vaziyatni baholash, uni avvalgi tajribalar bilan qiyoslash va tegishli xulosa chiqarish imkonini beruvchi paremiologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Paremiyalar fondining funksional xususiyatlari ma'lum darajada pretsedentga asoslangan huquqiy tafakkur

tamoyiliga yaqinlashadi. Chunki subyekt muayyan vaziyatda qanday qaror qabul qilish yoki qanday yo'l tutish lozimligini aniqlash jarayonida ilgari kuzatilgan va jamoaviy xotirada saqlanib qolgan namunaviy holatlarga murojaat qiladi. Ana shu ma'noda paremiya nafaqat til birligi, balki ijtimoiy xulq-atvorni tartibga soluvchi, baholovchi va yo'naltiruvchi madaniy-kognitiv vosita sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, zamonaviy ommaviy axborot oqimlaridan nisbatan cheklangan kichik lingvistik hamda lingvomadaniy jamoalarda u yoki bu paremiyaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan pretsedent vaziyatlar haqidagi tarixiy xotira uzoq muddat davomida saqlanib qolgan. Mazkur holat ko'plab paremiyalarning shakllanishi jamiyat hayotidagi muhim, takroriy va jamoa uchun ahamiyatli voqea-hodisalar bilan bevosita bog'liq bo'lganini taxmin qilish imkonini beradi. Demak, tarixiy taraqqiyotning zamonaviy madaniyatga xos ulkan axborot shovqini yuzaga kelishidan avvalgi bosqichlarida paremiyalar jamiyatning tarixiy tajribasi, ijtimoiy xotirasi hamda an'anaviy dunyoqarashini mustahkamlovchi barqaror semantik-kognitiv tuzilmalar sifatida faoliyat ko'rsatgan. Shu bois ular xalqning tarixiy xotirasi, madaniy davomiyligi va an'anaviy tafakkurini aks ettiruvchi hamda shakllantiruvchi muhim paremiologik birliklar sifatida baholanishi mumkin.

Konsept juda ham keng tushuncha bo'lib, konseptni olimlar turlicha ta'riflashgan. Konsept o'zida



mantiqshunoslik, psixologiya, tilshunoslik va falsafa fanlarning o‘zaro bo‘liqligi, hamkorligini aks ettiradi. Aniqrog‘i, konsept ko‘p qirrali, integrativ, ya‘ni logik – lingvistik – gnoseologik atama hamdir .

Konsept – inson ongidagi madaniyatning yig‘indisi; ana shu madaniyat qay shaklda insonning ong olamiga kirib keladigan narsa ekanligini o‘zida mujassam qilgan. Masalan, “qonun” so‘zi bu terminning tagidagi tushuncha (farmon, huquqiy hujjat, qonun matni va sh.o‘.) dan farqli ravishda “konsept” – “qonun” so‘zi bilan ongda paydo bo‘ladigan tasavvurot, tushuncha, bilim, assotsiatsiya, kechinmalar yig‘indisi.

Tilshunoslikda “konsept” atamasi haqida olimlar tomonidan turlicha ilmiy talqinlar mavjud bo‘lib, ular o‘ta abstraktlik, mohiyatan turli xil mavjudlikka ega ekanligi bilan izohlanadi. Lekin V.A.Maslova tomonidan konsept haqida aytilgan ta‘rif “konsept” mohiyatini aniqroq aks etirgan, ya‘ni “konsept lingvomadaniy o‘ziga xoslikka ega, ma‘lum bir etnomadaniyat vakillarini u yoki bu tarzda tavsiyalovchi semantik tuzulma” .

V.I. Karasikning fikriga ko‘ra, konseptning ta‘riflanishi – uning nomlanishi, unga yaqin ma‘no kasb etuvchi birliklarni izohlash bo‘yicha ilmiy tadqiqot jarayonidir:

- definitsiya berish- ma‘noviy belgilarining aniqlanishi;
- kontekstual analiz – assotsiativ bog‘liq ma‘noviy belgilarning ajratib

ko‘rsatilishi;

- etimologik tahlil;

- paremiologik tahlil;

- intervyular, anketalar, kommentlar olish .

Paremiyalarning tasnifiy va funksional ko‘rinishlari nihoyatda rang-barang bo‘lib, ularning faqat ayrim turlari tilshunoslik fanida maxsus tadqiqot obyektini sifatida izchil o‘rganilgan. Paremiyalarning mazmunini shakllantirish, umumlashtirish hamda konseptual jihatdan mujassamlashtirish xususiyati o‘zbek tilshunosligida alohida monografik yo‘nalishda yetarli darajada tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, ularning amaliy qo‘llanishi bilan bog‘liq kuzatishlar va tahlillar muayyan ilmiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy matn tarkibida paremiyalar nafaqat ekspressiv-uslubiy vosita, balki asarning semantik yadrosini ifodalovchi, muallif niyatini ochib beruvchi va o‘quvchi tafakkurini muayyan yo‘nalishga soluvchi muhim birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma‘lumki, ayrim hollarda butun bir roman, qissa yoki hikoyaning g‘oyaviy-badiiy mazmuni bitta maqol, matal yoki aforizm orqali ixcham va obrazli tarzda umumlashtirilishi mumkin. Bu jihat, ayniqsa, epigraf sifatida qo‘llangan paremiologik birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek adabiyotida Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri”, “Anor”, “Bemor” kabi hikoyalari mazmunini tahlil qilish jarayonida “O‘tning o‘limi – itning bayrami”, “Osmon yiroq – yer qattiq” kabi xalq maqollari asar mazmunini chuqurroq anglashga xizmat



qiluvchi semantik kalit vazifasini bajaradi. Bunday birliklar o'quvchida matnni mutolaa qilishdan oldin muayyan presuppozitsiyani shakllantiradi, asarda ifodalangan ijtimoiy, axloqiy va ruhiy holatlarni oldindan belgilab beradi hamda badiiy mazmunning interpretatsion ko'lamini kengaytiradi.

Paremiyalarning bunday lisoniy va lingvomadaniy imkoniyatlari boshqa tillarda ham keng kuzatiladi. Xususan, koreys tilida ham paremiyalar xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim paremiologik qatlamni tashkil etadi. Koreys tilida paremiyalar asosan maqollar, matallar va frazeologik birliklar tarkibida faol namoyon bo'ladi. Mazkur birliklar semantik jihatdan umumlashtirilgan hayotiy tajribani ifodalashi, pragmatik nuqtai nazardan nutq ta'sirchanligini oshirishi, lingvomadaniy jihatdan esa milliy dunyoqarashni aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois ularni paremiologik birlik sifatida ilmiy asosda tahlil qilish, ularning semantik, strukturaviy, funksional hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu paremiologik birlikni tahlil qilganimizda, 배가 아프다 so'zma – so'z tarjima qiladigan bo'lsak, “qorni og'rimoq” deb tarjima qilinadi. Ushbu 배가 아프다 frazeologik birlik bo'lib, koreys tilida hasad qilmoq ma'nosida kelib “Birovning yutug'idan hasad qilish”

o'zbek tilida “ko'ra olmaslik, ichki azob, ichi kuyishi” kabi ma'nolarda kelishini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga yana misol qilib aytadigan bo'lsak, 남 잘되는 꼴 못 보다 so'zma – so'z tarjima qiladigan bo'lsak, “Birovning muvaffaqiyatini ko'ra olmaslik” o'zbek tilida “ijtimoiy hasad” kabi ma'nosida keladi.

Koreys tilida nafaqat paremiologik birliklarni frazeologizmlarda balki maqollarda ham ko'rishimiz mumkin. Masalan maqollarda ko'radigan bo'lsak, 남의 떡이 커 보이다 So'zma-so'z: “Boshqaning noni (taomi) kattaroq ko'rinadi” deb tarjima qilinadi. Odam o'zida bor narsadan ko'ra boshqalarnikini yaxshiroq, kattaroq yoki chiroyliroq deb o'ylaydi. Ushbu maqolni gaplarda tahlil qiladigan bo'lsak,

그는 항상 남의 떡이 커 보인다고 생각합니다.

→ U har doim boshqalarniki yaxshiroq deb o'ylaydi. Quyidagi berilgan jumlada, o'zining narsasidan ko'ra birovning narsasi yaxshiligini izohlab keltirilgan.

Koreys tilidagi maqollar orasida insonning ichki emotsional holatini, ayniqsa hasad va rashk kabi salbiy tuyg'ularni ifodalovchi birliklar ham uchraydi. Shunday maqollardan biri 사춘이 땅을 사면 배가 아프다 hisoblanadi. Ushbu maqol so'zma-so'z tarjima qilinganda “Amakivachchasi (yoki qarindoshi) yer sotib olsa, qorni og'riydi” degan ma'noni anglatadi. Biroq maqolning ko'chma ma'nosi insonning boshqaning yutug'i, boyligi yoki



muvaffaqiyatini ko'ra olmasligi, ya'ni hasad hissining yuzaga kelishini ifodalaydi. Mazkur paremiologik birlik orqali koreys xalqining hayotiy kuzatuvlari, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar hamda emotsional holatlarning til vositasida ifodalanishi namoyon bo'ladi. Xususan, maqolda qarindosh obrazi qo'llanishi hasad hissi ko'pincha begonalarga emas, balki o'ziga yaqin bo'lgan insonlarga nisbatan ham yuzaga kelishini ta'kidlaydi.

Ushbu maqolni gapda tahlil qiladigan bo'lsak:

그는 친구가 성공하면 꼭 사촌이 땅을 사면 배가 아프다는 식으로 반응한다.

→ U do'sti muvaffaqiyat qozonsa, xuddi “사촌이 땅을 사면 배가 아프다” maqolidagidek munosabat bildiradi.

Mazkur gapda insonning o'zgalarning muvaffaqiyatidan quvonish o'rniga, unga nisbatan ichki noqulaylik va hasad bilan qarashi ifodalangan. Demak, 사촌이 땅을 사면 배가 아프다 maqoli koreys tilida hasad konseptini ifodalovchi muhim paremiologik vositalardan biri sifatida baholanishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Evans, V., Green, M. Cognitive Linguistics: An Introduction. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.
2. Маслова, В. А. Введение в когнитивную лингвистику. Москва: Флинта: Наука, 2007.
3. Рахматуллаев, Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
4. Ҳожиёв, А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
5. 조남호. 한국 속담 연구. 서울: 한국문화사, 2000.